



**HUQUQSHUNOSLIKDA: HUQUQIY MADANIYAT  
VA HUQUQIY ONGNI O'RNI**

**Abduraximov Shukurullo Dilmurodjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati bo'yicha Milliy gvardiya  
boshqarmasi 69933 harbiy qism Maxsus vazifalarni bajaruvchi otryad  
komandiri o'rinbosari kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7270142>

ANNOTATSIYA

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Huquq, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, fuqarolik, , huquqiy madaniyat.

АННОТАЦИЯ

Высокая правовая культура является выражением основ демократического общества, а также зрелости правовой системы. Он является фактором, активно влияющим на различные жизненные процессы в обществе, способствующим консолидации граждан, всех социальных групп, обеспечивающим и укрепляющим целостность и хаос общества. Уважение к закону является одним из основных требований правового общества, для эффективного функционирования политических и правовых систем.

Ключевые слова: право, правосознание, правовое воспитание, гражданство, , правовая культура.

ANNOTATION

A high legal culture is the foundation of a democratic society and an expression of the maturity of the legal system. It is a factor that actively influences various life processes in society, contributes to the clipping of citizens, all social groups, ensures and strengthens the integrity and integrity of society. Respect for the law is one of the main requirements for the effective functioning of the Legal Society, political and legal systems.

Keywords: law, legal consciousness, legal education, civil, , legal culture.



Huquqshunoslikda huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat kategoriyalaribir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbutushunchalar bir-birini to'ldiradi va o'zaro uz-viy aloqadordir. Davlat va huquq nazariyasi birlashmasi natijasida yuzaga kelgan va shakllangan. Madaniyatning umumiyta'rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida «madaniyat» tushunchasi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqaijtimoiy hodisani topish qiyin. Misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, chet ellik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1919-yilga qadar «madaniyat» tushunchasiga yettitata'rif berilgan, 1950-yilga kelib bu son 164 taga, 1970-yillarda esa – 250 tagayetgan<sup>1</sup>. Amerikalik olimlar A. Kreber va K. Klakxonlar esa, 1950-yillarningboshida «madaniyat» tushunchasining 257 ta ta'rifi mavjudligini ta'kidlaganlar<sup>2</sup>. Ijtimoiy fanlar miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni antropologik, sotsiologik yondashuv va falsafiy yondashuv<sup>3</sup> kabi uch guruhga bo'lish mum-kin. Antropologik yondashuvdamadaniyat tabiat yaratgan narsalardan farqliravishda, inson tomonidan yaratilgan ne'matlarning yig'indisi deb tushuniladi. Sotsiologik yondashuvesa, madaniyatni ma'naviy qadriyat deb talqin etadi. Buyerda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Falsafiy yondashuvdamadaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lmagan, softahliliy holda ajratilib ko'rsatiladi. Madaniyat ijtimoiy hayotning xilma-xil tomonlari va doiralarningnamoyon bo'lishini ko'rsatadi. Uning afzalligi «madaniy» va «huquqiy madaniyat» ni hayotda qo'llanish hollariga qarab taqqoslaganda yanada aniqko'rinadi. Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolidaqabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilanbirga, har bir muayyan holatda madaniyatning turlicha ko'rinishlarini tushunishdaqat'iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo'ladi. Chunonchi, huquqiy hayotda, ma'rifatparvarlikning shakllanishini ta'minlashda, inson omilini oshirish nuqtayi nazaridan yondashilganda, avvalambor, huquqiy madaniyatning mazmuniga e'tibor qaratish zarurligi namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyatdeganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, man-sabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmaganshaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyatshartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Huquqiy madaniyat — umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va





ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin.

Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu Milliy dastur qabul qilinmoqda.

Inson huquqlari — insonparvar demokratik huquqiy ongning o'zagidir. Huquqiy ong darajasi — bu odamlarning huquqlardan shunchaki xabardorligi, qonunlarni bilishigina emas. Bu, eng avvalo, qonunlarga rioya etish va ularni bajarishga tayyorlik, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilishdir.

Huquqiy madaniyat muammolarini tadqiq etishning sotsiologik negizini rivojlantirish, umuman jamiyatdagi huquqiy madaniyat va aholining turli qatlamlari huquqiy madaniyati holatining haqiqiy manzarasini aniqlash uchun so'rovlar o'tkazish va huquq, uning ijtimoiy qadri hamda tartibga soluvchanlik vazifasi to'g'risida jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa usullarini qo'llanish zarur.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga



singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Milliy va horij tajribasini umumlashtirgan holda qonunchilik bazasini shakllantirib, O'zbekiston huquqiy madaniyati milliy konsepsiyasini yaratish lozim. Shu ma'noda F. Musayev "Huquqiy madaniyatning yana bir jihati shuki, u qonunchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qonuniylikni mustahkamlash jarayoniga kirib boradi, qonuniylikning zaruriy holati sifatida namoyon bo'ladi" deb yozadi.

Huquqiy madaniyat sohasidagi nazariy tadqiqotlarga asoslanib, tarixiy tajriba va izlanishlar jarayonida aniqlangan xususiyatlarni umumlashtirib, O'zbekiston rivojlanishining yangi tarixiy-huquqiy bosqichiga mos huquqiy madaniyat modelini yaratish vaqti keldi. Albatta, bu vazifani amalga oshirish ko'p izlanishlarni talab qiladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati, inson huquqlariga rioya qilishi, demokratik o'zgarishlarga nisbatan moyilligi jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omillari hisoblanadi. Umuman olganda, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»ning qabul qilinishi yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish, qonun hujjatlari mazmun-mohiyatining fuqarolar va davlat organlari xodimlariga yetkazilishi, o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim va tarbiya bo'yicha o'quv dasturlari hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, yuridik adabiyotlar nashrini ko'paytirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy yordam olishlarida muhim rol o'ynadi.

Hozir respublikamizda aholiga huquqiy xizmatlar ko'rsatilishini yaxshilash, huquqiy ta'lim va tarbiya uslublari hamda vositalarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar majmui amalga oshirilmoqda. Bu harakatlar o'z samarasini bermoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston" 2022 yil



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-son
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 227-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori, 29.08.1997 yildagi 466-I-son
5. Sadoqat Karimova, O'zbekiston milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa va ma'naviyat" kafedrasida tadqiqotchisi maruza matnidan.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

